



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI ZONIMIK FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK HAMDA KOGNITIV TAHLILI

Turakulova Muborak Javlon qizi

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti, magistratura talabasi

Kurbonova Gulsara Sodikovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada fransuz va o‘zbek tillaridagi zoonimik frazeologizmlar lingvokulturologik hamda kognitiv nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi turli til va madaniyatlarda hayvon nomlari asosida shakllangan frazeologik birliklarning inson tafakkuri, milliy mentalitet va konseptual tizimni aks ettirish xususiyatlari bilan belgilanadi. Ishning asosiy maqsadi zoonimik frazeologizmlarning semantik, konseptual va madaniy xususiyatlarini aniqlash hamda fransuz va o‘zbek tillaridagi umumiy va farqli jihatlarni ochib berishdan iborat. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy, lingvokulturologik va kognitiv metodlardan foydalanildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayrim hayvon obrazlari ikkala tilda ham o‘xshash metaforik ma‘nolarni ifodalasa-da, ularning aksariyati milliy-madaniy stereotiplar asosida shakllanadi. Shuningdek, zoonimik frazeologizmlar orqali inson xarakteri, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlar konseptual modellashtiriladi. Tadqiqot natijalari tilshunoslikda frazeologiya, lingvokulturologiya va kognitiv lingvistika yo‘nalishlarida olib borilayotgan izlanishlarni boyitadi.

Kalit so‘zlar: zoonimik frazeologizmlar, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika, konsept, metafora, fransuz tili, o‘zbek tili, qiyosiy tahlil.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ И КОГНИТИВНЫЙ АНАЛИЗ ЗООНИМИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ ВО ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Туракулова Муборак Жавлон кизи

Университет точных и социальных наук, магистрант

Курбонова Гулсара Содиковна

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доцент

Аннотация

В статье проводится лингвокультурологический и когнитивный анализ зоонимических фразеологизмов во французском и узбекском языках. Актуальность исследования определяется тем, что фразеологические единицы, сформированные на основе названий животных в разных языках и культурах, отражают особенности мышления, национального менталитета и концептуальной системы. Основная цель работы заключается в выявлении семантических, концептуальных и культурных особенностей зоонимических фразеологизмов, а также определении сходств и различий между французским и узбекским языками. В исследовании использованы сравнительно-аналитический, лингвокультурологический и когнитивный методы. Результаты анализа показывают, что некоторые образы животных в обоих языках выражают сходные метафорические значения, однако большинство из них формируется на основе национально-культурных стереотипов. Также через зоонимические фразеологизмы концептуально моделируются черты характера человека, его поведение и социальные отношения. Полученные результаты обогащают исследования в области фразеологии, лингвокультурологии и когнитивной лингвистики.

Ключевые слова: зоонимические фразеологизмы, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, концепт, метафора, французский язык, узбекский язык, сравнительный анализ.

LINGUOCULTURAL AND COGNITIVE ANALYSIS OF ZOONYMIC PHRASEOLOGICAL UNITS IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES

Turakulova Muborak Javlon qizi

University of Exact and Social Sciences, Master’s student

Kurbonova Gulsara Sodikovna

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Associate Professor

Abstract

The article presents a linguocultural and cognitive analysis of zoonymic phraseological units in French and Uzbek languages. The relevance of the study lies in the fact that phraseological units based on animal names reflect human thinking, national mentality, and conceptual systems across different languages and cultures. The main aim is to identify the semantic, conceptual, and cultural features of zoonymic phraseological units and to reveal similarities and differences between French and Uzbek. The research employs comparative-analytical, linguocultural, and cognitive methods. The results indicate that while some animal images convey similar metaphorical meanings in both languages, most are shaped by national-cultural stereotypes. Zoonymic phraseological units also conceptually model human character, behavior, and social relations. The findings contribute to the development of phraseology, linguoculturology, and cognitive linguistics.

Keywords: zoonymic phraseological units, linguoculturology, cognitive linguistics, concept, metaphor, French language, Uzbek language, comparative analysis.

Bugungi globallashuv sharoitida turli tillar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning kuchayishi til birliklarini nafaqat strukturaviy, balki lingvokulturologik va kognitiv jihatdan o'rganishni taqozo etmoqda. Xususan, frazeologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi, milliy dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini o'zida mujassam etuvchi muhim til hodisasi sifatida e'tirof etiladi [1]. Shu jihatdan, hayvon nomlari asosida shakllangan zoonimik frazeologizmlar til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yoritishda alohida ahamiyat kasb etadi. Zoonimik frazeologizmlar insonning borliqni, xususan, hayvonot olamini idrok etishi va uni konseptuallashtirish jarayonining mahsuli sifatida qaraladi. Bunday birliklarda muayyan hayvon obrazlari orqali insonning xarakteri, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlari metaforik tarzda ifodalanadi. Bu jarayon kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan konseptual metafora mexanizmlari orqali izohlanadi [2]. Masalan, "inson — hayvon" modeli doirasida tulki ayyorlik, it sadoqat yoki pastlik, qo'y esa itoatkorlik timsoli sifatida talqin qilinadi.

Frazeologik birliklarni lingvokulturologik yondashuv asosida o'rganish ularning ortida turgan milliy-madaniy stereotiplar va qadriyatlar tizimini aniqlash imkonini beradi. Har bir til o'ziga xos madaniy tajriba va mental model asosida hayvon obrazlariga ma'lum semantik yuklama beradi [3]. Shu sababli ayrim zoonimik frazeologizmlar turli tillarda o'xshash ma'noni anglatga-da, ularning aksariyati milliy xususiyatga ega bo'lib, madaniy tafovutlarni aks ettiradi. Fransuz va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub bo'lishiga qaramay, har ikkala tilda ham zoonimik frazeologizmlar faol qo'llaniladi. Biroq ularning semantik strukturalari, konseptual asoslari va lingvokulturologik xususiyatlari o'ziga xosdir. Shu bois ushbu tillarni qiyosiy o'rganish orqali umumiy va farqli jihatlarni aniqlash frazeologiya va kognitiv lingvistika rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi fransuz va o'zbek tillaridagi zoonimik frazeologizmlarni lingvokulturologik hamda kognitiv jihatdan tahlil qilish, ularning semantik va konseptual xususiyatlarini aniqlash hamda ikki til o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarni ochib berishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida uzoq tarixiy rivojlanish bosqichiga ega bo'lib, uning nazariy asoslari turli ilmiy maktablar tomonidan ishlab chiqilgan. Frazeologik birliklarning semantik, strukturaviy va funksional xususiyatlarini o'rganishda muhim yondashuvlardan biri sifatida ularning barqarorlik, ko'chma ma'no va reproduktivlik xususiyatlari ajratib ko'rsatiladi [4]. Shu bilan birga, frazeologizmlar til tizimida nafaqat lingvistik, balki madaniy axborotni ham saqlovchi birliklar sifatida talqin etiladi.

Kognitiv lingvistikaning rivojlanishi frazeologik birliklarni yangicha nuqtayi nazardan o'rganish imkonini berdi. Xususan, konseptual metafora nazariyasiga ko'ra, inson tafakkuri ko'p jihatdan metaforik xarakterga ega bo'lib, til birliklari orqali namoyon bo'ladi [2]. Ushbu nazariya asosida zoonimik frazeologizmlar inson xulq-atvori va xarakterini hayvon obrazlari orqali modellashtirish vositasi sifatida qaraladi. Masalan, "inson — hayvon" metaforik modeli ko'plab tillarda uchraydigan universal kognitiv mexanizmlardan biridir. Lingvokulturologiya doirasida olib borilgan tadqiqotlar esa til va madaniyatning uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Til birliklari, xususan, frazeologizmlar, milliy mentalitet va qadriyatlar tizimini aks ettiruvchi muhim vosita sifatida talqin etiladi [5]. Shu nuqtayi nazardan, zoonimik frazeologizmlar orqali turli xalqlarning hayvonot olamiga bo'lgan munosabati, stereotiplari va baholash mezonlari aniqlanadi.

Zoonimik frazeologizmlar alohida tadqiqot obyekti sifatida ham bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Masalan, Dobrovol'skiy va Piirainen [6] frazeologik birliklarning madaniy belgilarini tahlil qilib, ularning semantik motivatsiyasi va madaniy konnotatsiyalariga e'tibor qaratadi. Ularning fikricha,

frazeologizmlarni to‘liq anglash uchun nafaqat lingvistik, balki ekstralingvistik omillarni ham hisobga olish zarur. So‘nggi yillarda qiyosiy frazeologiya yo‘nalishida olib borilgan tadqiqotlar turli tillardagi frazeologik birliklarning umumiy va milliy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Xususan, Pamies [7] frazeologik birliklarni tipologik jihatdan o‘rganish zarurligini ta‘kidlab, metaforik modellarning universalligi va variativligini ko‘rsatadi. Bu esa turli tillardagi zoonimik frazeologizmlarni qiyosiy-kognitiv tahlil qilish uchun nazariy asos yaratadi. Fransuz tilshunosligida ham frazeologiya va metafora masalalari keng o‘rganilgan. Masalan, Gross [8] frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik xususiyatlarini tahlil qilgan bo‘lsa, zamonaviy tadqiqotlarda ularning kognitiv va madaniy jihatlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbek tilshunosligida esa frazeologiya masalalari asosan milliy material asosida o‘rganilgan bo‘lib, zoonimik frazeologizmlarning lingvokulturologik va kognitiv jihatdan qiyosiy tahlili yetarli darajada yoritilmagan.

Shu bois fransuz va o‘zbek tillaridagi zoonimik frazeologizmlarni integrativ yondashuv asosida o‘rganish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tadqiqot mavjud nazariy qarashlarni umumlashtirgan holda, ikki til materiallari asosida yangi ilmiy xulosalar chiqarishga qaratilgan.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda fransuz va o‘zbek tillaridagi zoonimik frazeologizmlarni qiyosiy, lingvokulturologik hamda kognitiv yondashuvlar asosida tahlil qilish nazarda tutildi. Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy frazeologiya, kognitiv lingvistik va lingvokulturologiya yo‘nalishlarida ishlab chiqilgan nazariy qarashlar tashkil etadi. Tadqiqot materiali sifatida fransuz va o‘zbek tillarida keng qo‘llaniladigan zoonimik frazeologizmlar tanlab olindi. Ma‘lumotlar frazeologik lug‘atlar, badiiy adabiyotlar hamda ommaviy nutq materiallari asosida yig‘ildi. Tanlash jarayonida birliklarning barqarorligi, ko‘chma ma‘noga egaligi va tarkibida hayvon nomining mavjudligi asosiy mezon sifatida belgilandi.

Tahlil jarayonida birinchi navbatda frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari aniqlanib, ular ma‘no guruhlariga ajratildi. Shundan so‘ng zoonimik komponent asosida shakllangan metaforik modellarning kognitiv mexanizmlari o‘rganildi. Bu bosqichda konseptual metafora nazariyasiga tayanildi, unga ko‘ra inson tafakkuri metaforik strukturalar orqali tashkil topadi va til birliklarida namoyon bo‘ladi [2]. Lingvokulturologik tahlil doirasida esa frazeologizmlarda aks etgan milliy-madaniy xususiyatlar, stereotiplar va baholash mezonlari aniqlashtirildi. Har bir frazeologik birlik ortida turgan madaniy konnotatsiyalar va ularning milliy mentalitet bilan bog‘liqligi tahlil qilindi. Bu yondashuv til birliklarini madaniy kod sifatida talqin etishga asoslanadi [3]. Qiyosiy tahlil bosqichida fransuz va o‘zbek tillaridagi zoonimik frazeologizmlar o‘zaro solishtirilib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Bunda semantik ekvivalentlik, qisman moslik va milliy-spetsifik birliklar alohida guruhlar sifatida ajratildi. Shuningdek, frazeologizmlarning strukturaviy va funksional xususiyatlari ham hisobga olindi [4].

Natijada tadqiqot metodologiyasi integrativ xarakterga ega bo‘lib, u turli yondashuvlarni birlashtirish orqali zoonimik frazeologizmlarning chuqur lingvistik, kognitiv va madaniy tahlilini amalga oshirish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar (Analysis and Results)

Tadqiqot doirasida fransuz va o‘zbek tillaridan jami 60 ta zoonimik frazeologik birlik tanlab olinib, ularning semantik, lingvokulturologik va kognitiv xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Tanlangan birliklar strukturaviy yaxlitligi, ko‘chma ma‘noga egaligi hamda tarkibida hayvon nomining mavjudligi mezonlari asosida saralandi. Tahlil jarayonida frazeologizmlar semantik guruhlar, baholash xususiyatlari va konseptual modellarga ko‘ra tasniflandi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, zoonimik frazeologizmlar har ikkala tilda ham asosan insonning xarakteri va xulq-atvorini ifodalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, tulki, it, eshak va qo‘y kabi hayvon obrazlari yuqori chastotada uchraydi va ko‘pincha o‘xshash semantik yuklama bilan qo‘llaniladi. Bu holat ayrim hayvonlarga nisbatan shakllangan umumiy kognitiv tasavvurlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Quyidagi jadvalda eng tipik zoonimik frazeologizmlar qiyosiy jihatdan keltirilgan:

1-jadval. Fransuz va o‘zbek tillarida zoonimik frazeologizmlar qiyosi

Hayvon obrazi	O‘zbek tili	Fransuz tili	Semantik ma‘no	Konnotatsiya
Tulki	tulki ayyor	rusé comme un renard	ayyorlik	salbiy
It	itdek sodiq	fidèle comme un chien	sadoqat	ijobiy
Eshak	eshakday qaysar	têtu comme un âne	qaysarlik	salbiy
Qo‘y	qo‘ydek yuvosh	doux comme un agneau	muloyimlik	ijobiy
Cho‘chqa	cho‘chqaday iflos	sale comme un cochon	ifloslik	salbiy
Ilon	ilondek zaharli	langue de vipère	zaharlilik	salbiy

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ayrim hayvon obrazlari har ikkala tilda deyarli bir xil semantik mazmunda qo‘llaniladi. Xususan, tulki — ayyorlik, it — sadoqat, eshak — qaysarlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Bu esa zoonimik frazeologizmlarning ma‘lum qismi universal kognitiv asosga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, umumiy tanlangan birliklar miqdoriy jihatdan tahlil qilinib, ularning baholash xususiyatlari quyidagicha taqsimlandi:

2-jadval. Zoonimik frazeologizmlarning konnotativ taqsimoti

Kategoriya	Soni	Foiz (%)
Salbiy	35	58%
Ijobiy	15	25%
Neytral	10	17%

Mazkur natijalar zoonimik frazeologizmlarda salbiy baholash ustun ekanligini ko‘rsatadi. Bu holat insonning salbiy xulq-atvorini ifodalashda hayvon obrazlaridan keng foydalanilishi bilan izohlanadi.

Semantik jihatdan frazeologizmlar quyidagi asosiy guruhlarga ajratildi:

inson xarakteri bilan bog‘liq birliklar — 40%

xulq-atvorni ifodalovchi birliklar — 35%

umumiy baholash va emotsional ifoda — 25%

Bu taqsimot zoonimik frazeologizmlar asosan insonni tavsiflash vositasi sifatida xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Tahlil davomida milliy-spetsifik birliklar ham aniqlandi. Masalan, o‘zbek tilidagi “tuya bo‘yni egri” frazeologizmi muayyan madaniy tajribaga asoslangan bo‘lib, fransuz tilida bevosita ekvivalentga ega emas. Aksincha, fransuz tilidagi “poser un lapin” birikmasi o‘zbek tilida zoonimik shaklda ifodalanmaydi. Bunday birliklar madaniy tafovutlarni ochib beruvchi muhim indikator sifatida namoyon bo‘ladi.

Kognitiv tahlil natijasida zoonimik frazeologizmlar quyidagi konseptual model asosida shakllanishi aniqlandi:

INSON → HAYVON → XUSUSIYAT → BAHOLASH

Mazkur modelda hayvon obrazi inson xususiyatlarini ifodalovchi vositachi sifatida xizmat qiladi. Ya‘ni abstrakt tushunchalar, masalan, ayyorlik, sadoqat, qaysarlik, konkret hayvon obrazlari orqali ifodalanadi. Bu esa til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni yana bir bor tasdiqlaydi.

Umuman olganda, olib borilgan tahlil natijalari fransuz va o‘zbek tillaridagi zoonimik frazeologizmlar, bir tomondan, umumiy kognitiv mexanizmlarga asoslanishini, boshqa tomondan esa milliy-madaniy omillar ta‘sirida farqlanishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, miqdoriy va qiyosiy tahlil natijalari ushbu birliklarning til tizimidagi funksional va semantik ahamiyatini aniqroq ochib berishga xizmat qildi.

Muhokama. Olingan natijalar fransuz va o‘zbek tillaridagi zoonimik frazeologizmlar tizimi nafaqat til birliklari majmui, balki inson tafakkurining muhim aks ettiruvchisi ekanligini ko‘rsatadi. Tahlil davomida aniqlangan semantik o‘xshashliklar, xususan, tulki, it, eshak va qo‘y obrazlarining deyarli bir xil ma‘noda qo‘llanishi, inson tafakkurida hayvonlarga nisbatan shakllangan umumiy konseptual modellarning mavjudligini tasdiqlaydi. Bu holat kognitiv lingvistika doirasida ilgari surilgan metaforik tafakkur nazariyasi bilan uyg‘unlashadi, ya‘ni inson abstrakt tushunchalarni konkret obrazlar orqali idrok etadi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari zoonimik frazeologizmlarning faqat universal hodisa emasligini ham ko‘rsatdi. Ayrim birliklarning faqat ma‘lum bir til va madaniyatga xosligi ularning shakllanishida ijtimoiy, tarixiy va madaniy omillar hal qiluvchi rol o‘ynashini anglatadi. Masalan, o‘zbek tilidagi tuya obrazi yoki fransuz tilidagi quyon bilan bog‘liq ifodalar bevosita ushbu xalqlarning turmush tarzi, tajribasi va madaniy stereotiplari bilan bog‘liq. Bu esa lingvokulturologik yondashuv nuqtayi nazaridan til birliklari milliy mentalitetning muhim ko‘rsatkichi ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Miqdoriy tahlil natijasida zoonimik frazeologizmlarda salbiy baholash ustunligi aniqlanganligi ham muhim ilmiy xulosalardan biridir. Bu holat insonning salbiy xulq-atvorini ifodalashda hayvon obrazlaridan faol foydalanilishi bilan izohlanadi. Boshqacha aytganda, hayvonlar ko‘pincha insondagi nomaqbul xususiyatlarni kuchaytirib ko‘rsatish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan zoonimik frazeologizmlar baholovchi (evaluativ) funksiyani bajaruvchi muhim til birliklari sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda aniqlangan konseptual model — “inson → hayvon → xususiyat → baholash” — zoonimik frazeologizmlarning kognitiv mexanizmini tushuntirishda samarali vosita sifatida qaralishi mumkin. Mazkur model shuni ko‘rsatadiki, inson o‘z tajribasida mavjud bo‘lgan hayvon obrazlari orqali murakkab psixologik va ijtimoiy tushunchalarni soddalashtiradi va ularni til orqali ifodalaydi. Bu jarayon esa til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tasdiqlovchi dalillardan biri hisoblanadi.

Natijalarni mavjud ilmiy qarashlar bilan solishtirganda, tadqiqot natijalari frazeologik birliklarning kognitiv va lingvokulturologik tabiatini tasdiqlovchi umumiy tendensiyalarni qoʻllab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, fransuz va oʻzbek tillari materiallari asosida olingan yangi maʼlumotlar qiyosiy frazeologiya doirasida muayyan aniqliklar kiritishga xizmat qiladi. Ayniqsa, universal va milliy-spetsifik birliklar oʻrtasidagi nisbatni aniqlash ushbu yoʻnalishda olib boriladigan keyingi tadqiqotlar uchun muhim asos boʻlib xizmat qilishi mumkin. Umuman olganda, mazkur tadqiqot zoonimik frazeologizmlarni faqat lingvistik birlik sifatida emas, balki inson tafakkuri, madaniy tajribasi va ijtimoiy baholash tizimining kompleks ifodasi sifatida talqin qilish zarurligini koʻrsatadi. Bu esa frazeologiyani oʻrganishda integrativ yondashuvning ustuvorligini yana bir bor asoslaydi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot fransuz va oʻzbek tillaridagi zoonimik frazeologizmlarni lingvokulturologik va kognitiv yondashuv asosida qiyosiy tahlil qilishga bagʻishlandi. Olib borilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, har ikkala tilda hayvon nomlari asosida shakllangan frazeologik birliklar inson xarakteri, xulq-atvori va ijtimoiy baholashini ifodalashda muhim til vositasi sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida ayrim hayvon obrazlari, jumladan, tulki, it, eshak va qoʻy kabi birliklar har ikkala tilda oʻxshash semantik mazmunda qoʻllanilishi aniqlanib, bu holat zoonimik frazeologizmlarning maʼlum darajada universal kognitiv asosga ega ekanligini koʻrsatdi. Shu bilan birga, qiyosiy tahlil natijalari ayrim frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlar taʼsirida shakllanishini ham tasdiqladi. Xususan, faqat muayyan tilga xos boʻlgan birliklarning mavjudligi har bir xalqning oʻziga xos dunyoqarashi va madaniy tajribasi til orqali ifodalanishini koʻrsatadi. Miqdoriy tahlil zoonimik frazeologizmlarda salbiy konnotatsiyaning ustunligini aniqladi, bu esa insonning salbiy xususiyatlarini ifodalashda hayvon obrazlaridan faol foydalanilishini koʻrsatadi. Ushbu holat frazeologik birliklarning baholovchi funksiyasi yetakchi ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, tadqiqot davomida taklif etilgan “inson → hayvon → xususiyat → baholash” konseptual modeli zoonimik frazeologizmlarning kognitiv mexanizmini izohlashda samarali vosita sifatida asoslandi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi fransuz va oʻzbek tillaridagi zoonimik frazeologizmlarni integrativ, yaʼni lingvokulturologik va kognitiv yondashuvlar uygʻunligida oʻrganish, ularni qiyosiy va miqdoriy tahlil asosida tizimlashtirish hamda ularning konseptual modelini aniqlash bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari frazeologiya, kognitiv lingvistika va qiyosiy tilshunoslik yoʻnalishlarida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni boyitadi. Amaliy jihatdan mazkur ish natijalari tarjima nazariyasi, xorijiy tillarni oʻqitish hamda madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonlarida zoonimik frazeologizmlarning toʻgʻri talqin qilinishiga xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, kelgusida boshqa tillar materiallari asosida qiyosiy tadqiqotlar olib borish uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Kunin A. V. Course of Modern English Phraseology. – Moscow: Higher School, 1996.
2. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – URL: <https://press.uchicago.edu/ucp/books/book/chicago/M/bo3637992.html>
3. Maslova V. A. Linguoculturology. – Moscow: Academy, 2001.
4. Burger H. Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. – Berlin: Erich Schmidt Verlag, 1998.
5. Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words. – Oxford: Oxford University Press, 1997.
6. Dobrovol'skij D., Piirainen E. Figurative Language: Cross-Cultural and Cross-Linguistic Perspectives. – Amsterdam: Elsevier, 2005. – DOI: <https://doi.org/10.1016/B978-008044379-0/50002-2>
7. Pamies A. Phraseology and metaphor: a typological approach // Yearbook of Phraseology. – 2017. – Vol. 8, No. 1. – P. 1–16. – DOI: <https://doi.org/10.1515/phras-2017-0001>
8. Gross G. Les expressions figées en français. – Paris: Ophrys, 1996.